

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘RAYEVA LAYLO OMONOVNA

**O‘ZBEK FOLKLORIDA DEHQON OBRAZI
VA DEHQONCHILIK TALQINI**

10.00.08 – Folklorshunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

UDK: 398(=512.133):63-058.224

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological Sciences**

To'rayeva Laylo Omonovna

O'zbek folklorida dehqon obrazi va dehqonchilik talqini 3

Тураева Лайло Омоновна

Образ дехкана и трактовка земледелия в узбекском фольклоре 25

Turayeva Laylo Omonovna

The image of a farmer and the interpretation of farming in the Uzbek folklore 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘RAYEVA LAYLO OMONOVNA

**O‘ZBEK FOLKLORIDA DEHQON OBRAZI
VA DEHQONCHILIK TALQINI**

10.00.08 – Folklorshunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fil2794 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tai.uz) va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

O'rayeva Darmon Saidaxmedovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Rahmatov Yo'ldosh G'aybullayevich
filologiya fanlari doktori (DSc)

Achilov Nasim Kamolovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi muassasa:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.Fil.46.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «18» oktabr kuni soat 14.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent, Shahrizabz tor ko'chasi, 5-uy. Tel: (99871) 233-36-50; faks: (99871) 233-71-44; e-mail: uztafi@academy.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin (45 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent shahri, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «6» oktabr kuni tarqatildi.
(2023-yil «6» oktabr dagi 9 -raqamli reestr bayonnomasi).



J. Eshonqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, filol. f. d., professor

B. Mirzayeva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f. f. f. d. (PhD)

Sh. Turdimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filol. f. d., prof.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahondagi har bir xalq folklorida dehqonchilikka aloqador milliy qadriyatlar badiiy talqini alohida o‘rin tutadi. Ularda insonning mehnatsevarlik tuyg‘usi, bunyodkorlik salohiyati, yaratuvchanlik qudrati tarannum etilgani jihatidan kishilarning o‘zligini anglashiga xizmat qiladi. O‘zbek dehqonlarining kasb mahorati, mehnat faoliyati va mehnatga munosabati aks etgan poetik aytimlar genezisi, mavzuiy turlari, ularda dehqon obrazi, ruhiy kechinmalarining badiiy talqinini aniqlash xalq ijodida mehnat poeziyasining janrlar tarkibini, an’anaviy obrazlarini mukammal tasniflash, taraqqiyot xususiyatlarini ochishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon folklorshunosligida folklor namunalariga antropotsentrik jihatdan yondashib, ularning yaratilishi va ijrosida inson aql-zakovati, ruhiy kechinmalari, voqelikka modal munosabatining rolini asoslashga qiziqish kuchayib bormoqda. Bunda insonning dehqonchilik mehnati bilan shug‘ullanish jarayonida yaratgan qo‘shiqlari alohida turkumni tashkil etishi, areal va lokal xususiyatlarga egaligi, tabiat, agrar va hosildorlik kultlari bilan genetik bog‘lanishi alohida e‘tiborni tortadi. O‘zbek dehqonlari yerni ekishga tayyorlash uchun qo‘sh qo‘shishda, hosilni o‘rib olish va xirmon yanchishda turli agrar marosimlar uyushtirgan va bu jarayonlarga mos qo‘shiqlar ijro qilgan. O‘zbek folklorida dehqonchilik pirlari haqidagi e‘tiqodiy qarashlar, ular bilan bog‘liq marosimlar, dehqonchilik qo‘shiqlarining genezisi, janriy tarkibi, poetikasi, ijro xususiyatlari, dehqon taqvimi hamda dehqon obrazining folklordagi ifodasini aniqlash folklorshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biridir. Ziroatchilik, bog‘dorchilik, polizchilik, tolachilik va qo‘riqchilik qo‘shiqlari ham borki, ularning struktural-semantik, lingvopoetik belgilarini dehqonchilik qo‘shiqlari tarkibida asoslash shunday dolzarb masalalardan birini tashkil qiladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, “milliy ma’naviy o‘zlikka ega bo‘lish, madaniy merosni o‘zlashtirish uchun kurash yalpi ijtimoiy harakat¹”ga aylangani tufayli milliy mentalitetimizni belgilaydigan qadriyatlarimizga, xususan, mehnat jarayoni bilan bog‘liq marosimiy hamda nomarosimiy folklor namunalarining genezisi va badiiyatini, janriy hamda ijro xususiyatlarini chuqurroq ochishga bo‘lgan e‘tibor ortdi. Natijada dehqon qo‘shiqlarini alohida tizim sifatida o‘rganib, unga aloqador folklor namunalarining janriy rang-barangligini, umumiy va spetsifik belgilarini asoslash, dehqonchilik va dehqon obrazi talqini aks etgan xalq asarlarining badiiyatini yoritish juda muhim masalalardan biriga aylandi. Chunki bular xalq poetik tafakkurining folklor janrlari tarixiy-badiiy taraqqiyotidagi ifoda xususiyatlarini aniqlash imkonini berishi bilan dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son «O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2017, 8 февраль. – № 28 (6722).

tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017-yil 24-maydagi «PQ-2995-sonli «Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son «Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 26-apreldagi 304-son «Baxshichilik va dostonchilik san‘atini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon folklorshunosligida turli hududlarda yashovchi aholining dehqonchilikka oid milliy-madaniy turmush va mehnat sharoitini aks ettiradigan folklor namunalari shakllanganki, ularga aloqador janrlar tabiati, ijro xususiyatlari, tarixiy-genetik asoslari, badiiyati bo‘yicha ayrim ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu jihatdan Y.V.Anichkov, G.P.Snesarev, Z.A.Madayeva, S.A.Luguyev, G.Chursin, I.Muxiddinov, T.X.Xadjiyeva, A.Orazov, X.M.Xalilov, A.M.Ganiyeva, N.A.Kislyakov, Yu.N.Goloduxin, L.A.Chibirov tadqiqotlariga e‘tibor qaratilgan.²

O‘zbek folklorshunosligida dehqonchilik qo‘shiqlari, unga aloqador marosimlarning verbal komponentlari xususida M.Alaviya, B.Sarimsoqov, K.Ochilov, A.Musaqulov, M.Jo‘rayevlarning tadqiqotlari mavjud.³ Biroq o‘zbek

² Аничков Е.В. Весенняя обрядовая песня на Западе и у славян. Часть 1. – СПб., 1905. – С.331; Чурсин Г. Праздник выхода плуга у горских народов Дагестана // Известия Кавказского историко-археологического института. – Тифлис, 1927. Т.5. – С.124-156; Кисляков Н.А. Некоторые материалы по этнографии таджиков верховий Кашка-Дарьи // Труды Академии наук Таджикистана. – Хужанд, 1960. Т. СХХ. – С.81; Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С.233; Халилов Х.М. Отражение языческих представлений в обрядах и фольклоре лакцев // Мифология народов Дагестана. – Махачкала, 1984. – С.72; Оразов А. Этнографические очерки хозяйства туркмен Ахала в XIX – начале XX вв. – Ашхабад, 1985. – С.43; Лугуев С.А. Народный календарь и счет времени у ахвахцев (XIX – нач. XX в.) // Календарь и календарные обряды народов Дагестана. – Махачкала, 1987. – С.13; Ганиева А.М. Общность и национальное многообразие дагестанских календарно-обрядовых песен (зимно-весенний цикл) // Календарно-обрядовая поэзия народов Северного Кавказа. – Махачкала, 1988. – С.10; Мадаева З.А. Обрядовый фольклор вайнахов в народном календаре // Календарно-обрядовая поэзия народов Северного Кавказа. – Махачкала, 1988. – С.116-117; Хаджиева Т.Х. Эстетическая и утилитарно-магическая функции календарных песен балкана и карачевцев (весенне-летний цикл) // Календарно-обрядовая поэзия Северного Кавказа. – Махачкала, 1988. – С.60-78; Мухиддинов И. Реликты доисламских обычаев и обрядов у земледельцев Западного Памира (XIX – начало XX вв.). – Душанбе, 1989. – С.77-78; Голодухин Ю.Н. Вопросы классификации и духовный мир древнего земледельца по петроглифам Саймалы-Таша // Первобытное искусство. – Новосибирск: Наука, 1971. – С.202; Чибиров Л.А. Народный земледельческий календарь Осетии. – Пхивали, 1976. – 279 с.

³ Алави М. Ўзбек халқ маросим қўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1974. – 222 б.; Саримсоқов Б. «Шох мойлар» (далага қўш чиқариш) маросими // Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – С.50-52; Очил Камол.

folklorshunosligida mehnat qo'shiqlarining keng tarqalgan ko'rinishi – dehqonchilik qo'shiqlarining genezisi, badiiy xususiyatlari alohida maxsus tadqiq qilinmagan. Shuni inobatga olib, mazkur tadqiqotda dehqonchilik qo'shiqlarining badiiy xususiyatlarini, turlarini, ularda dehqon obrazining va dehqon his-kechinmalarining poetik talqiniga xos xususiyatlarni maxsus tadqiq etish ko'zda tutildi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universitetining "Buxoro folklorini o'zbek folklori kontekstida o'rganish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek folklorida dehqonchilik bilan bog'liq qo'sh, o'rim, ho'p (xirmon), ziroatchilik, bog'dorchilik, polizchilik, tolachilik, qo'riqchilik qo'shiqlarining hamda tabiat, agrar, hosildorlik kultriga ishonchni ifodalovchi agrar marosimlar va taqvim folklorining poetikasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'zbek folklorida dehqonchilik mavzusining paydo bo'lishi va poetik verballashuv asoslarini ochish;

o'zbek folklorida dehqon va dehqonchilik ta'rif-tavsiflanishi, qishloq va shahar folklorining farqli xususiyatlari, dehqon va ishchi og'zaki ijod namunalarning g'oyaviy-badiiy jihatlarini dalillash;

o'zbek dehqonlarining tabiat, agrar va hosildorlik kultriga oid qarashlarining folklordagi talqinini, shu asosda kelib chiqqan marosimlar folklori badiiyatini aniqlash;

o'zbek folklorida dehqon qo'shiqlarini qo'sh, o'rim, ho'p qo'shiqlaridan tashqari ziroatchilik, bog'dorchilik, polizchilik, tolachilik va qo'riqchilik qo'shiqlari tashkil qilishini, ularning o'ziga xos kompozitsion va lingvopoetik belgilarini asoslash;

o'zbek dehqonlarining taqvim folklori genezisi va poetikasini, ularda dehqonchilik taqvim ramzlarining berilishini isbotlash;

o'zbek folklorida dehqonchilikka aloqador atama va predmetlar ifodasini, dehqon obrazi tasviriga xos g'oyaviy-badiiy xususiyatlarni oydinlashtirish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida dehqon obrazi va dehqonchilik talqini keltirilgan folklor matnlari: afsona, ertak, doston, maqol, topishmoqlar, xususan, dehqonchilikka daxldor qo'sh, o'rim, xirmon, ziroatchilik, bog'dorchilik, polizchilik, tolachilik va qo'riqchilik qo'shiqlari tanlandi.

Tadqiqotning predmetini o'zbek folklorida dehqon obrazi va dehqonchilik talqini bilan bog'liq poetik xususiyatlar tashkil etadi.

Қалдирғочни кўндирган кўшиқ. – Самарқанд: Зарафшон, 1992 – 222 б.; Жўраев М. Ўзбек халқ аграр маросимлари тизимида «Шохмойлар» ёки «Биринчи кўш» удуми // Академик Яхё Гуломов номидаги Республика иимий семинарининг «Ўзбекистон худудида деҳқончилик маданиятининг тарихий илдизлари ва замонавий жараёнлар» мавзуидаги 37-йиғилиши материаллари. – Тошкент, 2006. – Б.83-90; Жўраев М. Наврўз кўшиқлари. (Наврўз байрамида баҳорий удумлар билан боғлиқ ўзбек халқ кўшиқлари). – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – 164 б.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, komponent, kontekstual, etnofolkloristik tadqiq usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

o‘zbek folklorida dehqonchilik mavzusining tabiat, agrar, hosildorlik kultlariga ishonch asosida paydo bo‘lgani, poetik verballashuvga erishgani, dehqon marosimlari va taqvim folklori yaratilgani hamda dehqonchilik taqvim ramzlari, dehqonchilikka aloqador atama va predmetlar poetik ifodasi, dehqon shaxsi, sifatleri, ruhiyati, turmush sharoiti badiiy tasviriga oid xususiyatlar asoslangan;

o‘zbek folklori hamda adabiyotida dehqon va dehqonchilik kasbi ta’rifi qadimdan an’anaviy yoritib kelinayotgani, mehnat folklorining qishloq //shahar va dehqon // ishchi repertuariga bo‘linish davri, sabablari, bunda qo‘shiq poetikasida yo‘l qo‘yilgan buzilishlar ko‘rsatib berilgan;

o‘zbek folklorida dehqon qo‘shiqlarini qo‘sh, o‘rim, ho‘p qo‘shiqlaridan tashqari ziroatchilik, bog‘dorchilik, polizchilik, tolachilik va qo‘riqchilik qo‘shiqlari ham tashkil qilishi, ularning o‘ziga xos obrazlari, ritmik-kompozitsion qurilishi, lingvopoetik belgilari, an’anaviy va zamonaviy obrazlari borligi isbotlangan;

dehqonchilikka oid “Moshoba bayrami”, “Hosil bayrami”, “Ona bug‘doy” yoki “Oblo baraka”, “Qo‘sh soldi”, “Qo‘sh oshi”, “O‘roq soldi”, “Yozixonlik”, “Xirmon bosdi” singari xalq marosim va udumlarining verbal komponentlari badiiyati aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o‘zbek xalq dehqonchilik qo‘shiqlarining boshqa mehnat qo‘shiqlaridan farqi, o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy, kompozitsion, ijro xususiyatlariga egaligi dalillangan;

o‘zbek folklorida dehqon obrazining poetik talqini afsona, ertak, doston, qo‘shiq, maqollarda uchraydigan dehqon obrazi asosida kuzatilib, ular tasviriga xos epik bir xillik va farqli belgilar ko‘rsatilgan;

dehqonchilik qo‘shiqlari qo‘sh, o‘rim, yanchiq (xirmon yoki ho‘p mayda), yorg‘ichoq qo‘shiqlaridan tashqari, ziroatchilik, bog‘dorchilik, polizchilik, tolachilik va qo‘riqchilik qo‘shiqlari ko‘rinishida ham o‘rganilishi lozimligi faktik materiallar asosida isbotlanib, tavsifiya qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi chiqarilgan xulosalarning tasniflash, tavsiflash, tarixiy-qiyosiy, komponent, kontekstual, etnofolkloristik tadqiq usullari bilan asoslangani, tadqiqot ob‘yektining aniqligi, mavzuni yoritishda ilmiy-tarixiy va adabiy manbalarga tayanilgani singari jihatlarida ko‘rinadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turkiy xalqlar hamda o‘zbek folkloridagi mehnat qo‘shiqlari turlarini, badiiy xususiyatlarini, janriy tarkibi va tabiatini qiyosiy o‘rganishda, ularda uchraydigan an’anaviy obrazlar poetik talqini yuzasidan tadqiqotlar olib borishda nazariy manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishda keltirilgan dalillar, nazariy fikr-mulohazalardan oliy o‘quv yurtlarida xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti fani

bo'yicha maxsus kurslar o'tishda, ma'ruzalar o'qishda, akademik litsey va kollejlarda folklor fanidan dars mashg'ulotlari olib borishda, o'zbek folkloridan darslik, o'quv qo'llanmalar, majmualar, lug'atlar yaratishda keng foydalanish mumkinligida aks etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek folklorida dehqon obrazi va dehqonchilik talqinini aniqlash yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbek folklorida dehqonchilik mavzusining tabiat, agrar, hosildorlik kultlariga ishonch asosida paydo bo'lgani va poetic verballashuvga erishgani, dehqon marosimlari va taqvim folklori yaratilgani hamda dehqonchilik taqvim ramzlari, dehqonchilikka oid atama va predmetlar poetic ifodasi, dehqon shaxsi, ruhiyati, turmush sharoiti badiiy tasviriga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-005 "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" (2017-2020 y.y.) mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2022-yil 31-martdagi №17 01/141 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada ishdagi dunyo xalqlarining juda ko'pchiligi orasida dehqonchilik qadimiy kasb turlaridan biri sifatida shakllantirish, uning ziroatchilik, tolachilik, bog'dorchilik, polizchilik va sabzavotchilik, qo'riqchilik, qo'sh haydash, o'rim, xirmon yanchish turlariga muvofiq folklor namunalari yaratish imkonini bergan. O'zbek folklori hamda adabiyotida dehqon va dehqonchilik kasbi ta'rifi qadimdan an'anaviy yoritib kelinayotgani, mehnat folklorining qishloq //shahar va dehqon // ishchi repertuariga bo'linish davri, sabablari, bunda qo'shiq poetikasida yo'l qo'yilgan buzilishlar ko'rsatib berilganligi hamda o'zbek folklorida dehqon qo'shiqlarini qo'sh, o'rim, ho'p qo'shiqlaridan tashqari ziroatchilik, bog'dorchilik, polizchilik, tolachilik va qo'riqchilik qo'shiqlari ham tashkil qilishi, ularning o'ziga xos obrazlari, ritmik-kompozitsion qurilishi, lingvopoetik belgilari, an'anaviy va zamonaviy obrazlari borligi isbotlanganligiga oid xulosalar qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixida ham dehqon obrazi genezisi, dehqonchilik mavzusi talqinida umumturkiy qarashlar bilan bog'liqlik borligini isbotlash, milliy xususiyatlarini farqlash imkonini bergan;

dehqonchilikka oid "Moshoba bayrami", "Hosil bayrami", "Ona bug'doy" yoki "Oblo baraka", "Qo'sh soldi", "Qo'sh oshi", "O'roq soldi", "Yozixonlik", "Xirmon bosdi" singari xalq marosim va udumlarining verbal komponentlari badiiyati aniqlanganligiga oid xulosalaridan "Buxoro" telekanalining "Navro'z udumlari", "Assalom, Buxoro", "Sakkizinchi mo'jiza", "Jahon tamadduni durdonalari", "Asrlarning asraganlari" teleko'rsatuvlari, "Muloqot va munozara", "Qadriyatlar qadim beshigi" radioeshittirishlari senariylarida foydalanilgan ("Buxoro" telekanalining 2022 yil 29-iyuldagi 1/165-son). Natijada ko'rsatuvlarning ilmiyligi va ommabopligi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-amaliy anjumanda, shu jumladan, 7 ta respublika, 3 ta xorijiy konferensiyalarda

qilingan ma'ruzalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, ulardan 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan bo'lib, umumiy hajmi 144 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti, predmeti, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi ko'rsatib o'tilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'zbek folklori janrlari kesimida dehqonchilik mavzusining badiiy talqin xususiyatlari**" deb nomlangan bo'lib, ilk fasli "**O'zbek folklorshunosligida dehqonchilik mavzusining tadqiq asoslari**" deb atalgan. Jahon xalqlari madaniy hayotida dehqonchilik alohida mavqe kasb etadi. Qadimiy Turon zaminida boy dehqonchilik madaniyati shakllangan va unga aloqador salmoqli folklor namunalari ham yaratilib, yaxlit bir tizim ko'rinishida birlashgan.⁴ "Dehqon" so'zi "Alpomish" dostonining bir necha o'rnida qo'llanganligi uning qadimiy kasblardan biri ekanidan dalolat beradi.⁵

Dehqonchilikka aloqador tushuncha va tajribalar jahon xalqlari og'zaki va yozma ijodida badiiy aks etib kelgan. Jumladan, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan folklor namunalari orasida dehqonlar poeziyasi hamda dehqon obrazi va dehqonchilik mavzusi talqini alohida o'ringa ega. Ular ko'pincha mavsumiy marosimlar, xalq taqvimi bilan bog'liqlikda, yerga ishlov beruvchilarning e'tiqodiy qarashlari, agrar kullarga ishonch asosida o'rganilib kelingan.⁶ O'zbek folklorshunosligida dehqonchilik mavzusi quyidagi janrlar doirasida tadqiq qilinib kelingan:

⁴ Раҳмонов Ф. Қашқадарё воҳаси аҳолисининг зироатчиликка оид урф-одатлари ва маросимлари (XIX асрнинг охири – XX аср бошлари): Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2001. – 96 б.; Исоқов Ф. Фарғона водийси ўзбекларида деҳқончилик тақвими билан боғлиқ урф-одат ва маросимлар // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва ёндашувлар. – Тошкент, 2004. – Б.205-208; Анорбоев А. Ўзбекистон ҳудудида деҳқончилик маданиятининг тарихий илдизлари ва замонавий жараёнлар. – Тошкент: Фан, 2006. – 423 б.

⁵ Алломиш. Достон. – Тошкент: "Шарқ" нашриёт матбаа концерни, 1998. – Б.26.

⁶ Чурсин Г. Праздник выхода плуга у горских народов Дагестана // Известия Кавказского историко-археологического института. – Тифлис, 1927. Т.5. – С.124-156; Мухиддинов И. Реликты доисламских обычаев и обрядов у земледельцев Западного Памира (XIX – начало XX вв.). – Душанбе, 1989. – С.77-78; Голодухин Ю.Н. Вопросы классификации и духовный мир древнего земледельца по петроглифам Саймалы-Таша // Первобытное искусство. – Новосибирск: Наука, 1971. – С.202; Чибиров Л.А. Народный земледельческий календарь Осетии. – Пхивали, 1976. – 279 с.; Басилов В.Н. Божества аграрных культов // Культ святых в исламе. – М.: Мысль, 1970. – Б.10-25.

1. Dehqonchilik qo‘shiq-lari. Bu borada M.Alaviya, B.Sarimsoqov, K.Ochilov, A.Musaqulovlarning olib borgan ilmiy izlanishlari ayri-cha e‘tiborga molik.⁷ O‘zbek xalq dehqonchilik qo‘shiq-larining ilk tadqiqotchisi M.Alaviyadir. Dehqonchilik qo‘shiq-lari ilk bor K.Ochilov tomonidan o‘zbek mehnat qo‘shiq-larining bir ko‘rinishi sifatida maxsus tadqiq qilingan.⁸

Mehnat qo‘shiq-lari va uning ichki bir turi bo‘lgan dehqonchilik qo‘shiq-larining g‘oyaviy-badiiy, kompozitsion qurilishi haqida B.Sarimsoqov⁹, uning hosildorlik kul-tlariga ishonch asosida shakllangani xususida A.Musaqulov¹⁰ bildirib o‘tgan fikr-mulohazalar ham o‘ziga xos qimmatga ega.

2. Dehqonchilik marosimlari qo‘shiq-lari. Bu haqda M.Alaviya, T.Mirzayev, K.Ochilov, B.Sarimsoqov, M.Jo‘rayev tadqiqotlari e‘tiborni tortadi.¹¹ Mehnat qo‘shiq-lari dastlab marosimiy, ritual, amaliy ahamiyatga ega bo‘lganini taniqli folklorshunos T.Mirzayev alohida e‘tirof etib, ularga ijtimoiy, lirik motivlar keyinchalik o‘zlashganligini qayd etadi.¹²

O‘zbek folklorshunosligida dehqonchilik mavzusining o‘rganilishiga quyidagi ikki jihatdan yondashish maqsadga muvofiqdir: 1. Dehqonchilikka aloqador poetik namunalarning to‘planishi va nashr qilinishi. 2. Dehqonchilikka aloqador poetik namunalarning ilmiy o‘rganilishi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli *“Folklor janrlari kesimida dehqon obrazi va dehqonchilik talqini”* deb atalgan. Dehqon obrazi o‘zbek folkloridagi qadimiy va an‘anaviy obrazlardan biridir. Dehqon obrazi va dehqonchilik mavzusi folklorning kichik janrlari – maqol, topishmoq, olqishdan tortib, ayrim lirik, mavsum-marosim va mehnat qo‘shiq-lari, epik turning afsona, toponimik rivoyat, sehrlil va maishiy ertak kabi janrlari, ba‘zi dostonlar, bolalarni erkalovchi aytimlar yoki o‘yin folklori namunalarida o‘ziga xos talqin etilgani kuzatiladi. Dehqonlar hayoti bilan bog‘liq e‘tiqodiy qarashlar, turmush va mehnat manzaralari folklorning turli janrlarida

⁷ Алавия М. Ўзбек халқ кўшиқлари. – Тошкент: ЎзР ФА нашриёти, 1959. – 315 б.; Алавия М. Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1974. – 222 б.; Саримсоқов Б. Деҳқончилик билан боғлиқ меҳнат кўшиқлари // Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 227-236; Камол Очил. Қалдирғочни кўндирган кўшиқ. – Самарқанд: Зарафшон, 1992; Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.210-216.

⁸ Ачилов К. Узбекские народные трудовые песни: Афтореф. ... дисс. канд. филол. наук. – Тошкент, 1974. – 30 с.; Очил К. Меҳнат кўшиқлари ҳақида // Бойчечак. Болалар фольклори. Меҳнат кўшиқлари. Тузувчи ва нашрга тайёрловчилар О.Сафаров ва К.Очилов. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1984. – Б.328-334.

⁹ Саримсоқов Б. Деҳқончилик билан боғлиқ меҳнат кўшиқлари // Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. Биринчи том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 227-236.

¹⁰ Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.181-213.

¹¹ Алавия М. Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Тошкент: Фан, 1974. – 222 б.; Саримсоқов Б. «Шох мойлар» (далага кўш чиқариш) маросими // Ўзбек маросим фольклори. – Тошкент: Фан, 1986. – С.50-52; Камол Очил. Қалдирғочни кўндирган кўшиқ. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. –108 б; Жўраев М. Ўзбек халқ аграр маросимлари тизимида «Шохмойлар» ёки «Биринчи кўш» удуми // Академик Яхё Ғуломов номидаги Республика иимий семинарининг «Ўзбекистон худудида деҳқончилик маданиятининг тарихий илдизлари ва замонавий жараёнлар» мавзуидаги 37-йиғилиши материаллари. – Тошкент, 2006. – Б.83-90; Жўраев М. Наврўз кўшиқлари. (Наврўз байрамида баҳорий удумлар билан боғлиқ ўзбек халқ кўшиқлари). – Тошкент: Ўзбекистон миллий кутубхонаси нашриёти, 2007 – 164 б..

¹² Мирзаев Т. Народная поэзия Узбекистана // Узбекская народная поэзия. – Л.: Советский писатель, 1990. – С. 5-32.

dehqon obrazi misolida goh lirik, goh epik talqin etilgan. Ammo bu eng ko'p dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qo'shiqlarida o'z ifodasini topgan.

Shuni aytish kerakki, dehqon obrazi faqatgina dehqonchilikka aloqador mehnat qo'shiqlarining janriy takomilidagina muhim o'ringa ega. Boshqa janrlarda esa uning roli va o'rni janr takomilida emas, balki janr badiiyati takomilida ko'rinadi va ularning obrazlar hamda mavzular tarkibini boyitgani anglashiladi.

Xalq orasida dehqon obrazini o'zida gavdalantirgan **maqollar** ham anchagina. "O'zbek xalq ijodi" seriyasidagi ko'p tomlikning "O'zbek xalq maqollari" kitobida dehqonchilik haqida yozib olingan yuzdan ortiq maqollar chop etilgan.¹³

Dehqonning hayotini yersiz va suvsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu haqiqat "Dehqonning xazinasi – yer, Kaliti – ter", "Yer – dehqonning xazinasi", "Yer – don, dehqon – xazinabon" kabi qator maqollar orqali xalq xotirasiga muhrlangan. Dehqon yerga to'g'ri ishlov bera olsagina, mo'l hosil olishga erishadi. Lekin bunda bobodehqonlarning tajribasida sinovdan o'tganidek, yer tekis bo'lishi, vaqtida suv va o'g'it berib borilishi, o'z vaqtida shudgorlanishi, ba'zan yerni almashlab ekish, unga dam berish lozimligi, ekinni mavsumiga qarab ekish kerakligi kabi o'gitlar orqali avloddan-avlodga yetkazilib kelingan.

Dehqonchilik asboblari haqida yaratilgan **topishmoqlar** ham borki, tabiiy ravishda ularning yaratilishida dehqonlarning roli katta. Bu topishmoqlarda dehqonlar hayotiga xos voqeliklar o'ziga xos badiiy talqin etilgan bo'lib, ular orqali yoshlarga dehqonchilikda ishlatiladigan ish qurollari (ketmon, o'roq, panshaxa, kurak, omoch, suv chiqaradigan chig'iriy), ekin va o'simliklar (chigit, paxta, bug'doy, sholi, arpa, loviya, no'xat, mosh, tariq, jo'xori, oq jo'xori, tariq, kunjut, kungaboqar, zig'ir), qishloq xo'jaligiga oid traktor, paxta terish mashinasi, kombayn kabi transport vositalari nomlari o'rgatiladi. Masalan, xalq orasida tarqalgan "Saksonda savoqda, to'qsonda tovoqda" degan topishmoqomuz ibora sholi haqidadir.

Qadimiy rivoyatlarda dehqon atamasi forscha so'z ekani, uning katta inson, sayid-ul qavm, ya'ni, o'z qavmining obro'e'tiborli kishisi bo'lganligi aytiladi.

Dehqonchilikning kelib chiqishi xalq **afsonalar**ida Odam Ato nomi bilan bog'lab talqin qilinadi. Jumladan, Odam Ato va Momo Havoning Qain va Havel ismli ikki o'g'li bo'lib, biri dehqon, biri cho'pon bo'lgan ekan. Bir kuni dehqon Qain yerdan yetishtirgan mahsulotlaridan, cho'pon Havel esa qo'y dumbalaridan Xudovandaga hadya qilibdi. Xudovanda Havelni va uning hadyasini manzur ko'rgan, ammo akasining hadyasi Havelga manzur bo'lmagan. Bunday holat Qainning yuragida ukasiga qarshi hasad va nafrat uyg'otibdi. Bir kuni aka-ukalar dashtda bo'lganda Qain Havelni o'ldiradi. Ushbu afsona syujeti orqali dehqonchilikning chorvachilikni asta-sekin siqib chiqarib, unga nisbatan keng yoyila boshlaganini anglash mumkin.

¹³ Ўзбек халқ мақоллари. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. – Тошкент: Ф. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б.462-471.

O‘zbek afsonalarida bug‘doy ekib, dehqonchilik qilish an‘anasining yuzaga kelishi serhosillik, doimiy yashillik va hayot suvi timsoliga aylangan Xizr nomi bilan ham bog‘lab talqin qilinadi.¹⁴ Shu boisdan dehqonchilik **olqishlarida** Xizr nomiga murojaat keng uchraydi. Shuningdek, dehqonchilikka aloqador marosimlarda aytiladigan olqishlarda dehqon, aniqrog‘i, Bobo dehqon obraziga murojaat bo‘rtib turadi.

O‘zbek folklorida dehqonchilik pirlari haqida turli afsonalar mavjud bo‘lib, ular orqali agrar kultlar haqida ma‘lumotlar olish mumkin.

Ma‘lumki, yurtimiz hududida dehqon nomi bilan bog‘liq toponimlar ham bor. Bunga Xorazmdagi Gandimiyon, Surxondaryo hududidagi Dehqonobod toponimini misol qilish mumkin. Bu dalil ham xalqning dehqonlar bilan bog‘liq e‘tiqodiy qarashlarini o‘zida namoyon etishi, bu haqdagi **toponimik rivoyatlarning** paydo bo‘lishi haqidagi bilimlarni anglashga xizmat qiladi.

Folklorning eng yirik janrlari sanaluvchi **ertak** va **dostonlarda** dehqon obrazi alohida o‘rin tutadi. Ko‘pincha xalq sehrli va maishiy ertaklari, dostonlar syujetida dehqon obrazi yo bosh qahramon, yo epizodik personaj sifatida ko‘p qo‘llanib, o‘ziga xos badiiy vazifalarni bajarib keladi. Sehrli ertaklarda unga ko‘pincha mifologik timsollarning ko‘mak berishini kuzatish mumkin. Dehqonlar bosh obraz sifatida tanlangan ertak va dostonlar ham mavjud. Bunda ular podshodan ham dono va zo‘r qilib tasvirlanadi. Xususan, dehqon, uning qizi bosh qahramon sifatida tasvirlangan ertaklar juda ko‘p. Dehqon obrazi, asosan, maishiy ertaklar syujetida uchraydi. Masalan, “Donishmand dehqon” ertagida dehqonning inson sifatidagi aql-u zakovati, jismoniy kuch-qudrati, insoniy fazilati, halolligi, adolatliligi, botir va dovyurakligi ulug‘lansa, “Dehqonning qizi” ertagida dehqon farzandining o‘z ajdodlariga munosib voris ekanligi ochib beriladi.

Ayrim dostonlarda ham dehqon obrazi yoki dehqonchilik mavzusi xususida so‘z yuritilgani kuzatiladi. Bunga “Alpomish” dostoni ham misol bo‘la oladi. Dostonda dostonda Qo‘ng‘irot elining chorvadorlik, Qalmoq yurti aholisining esa dehqonchilik bilan shug‘ullanishi ta‘kidlangan.¹⁵

O‘rim paytida o‘rim qo‘shiqlari bilan bir qatorda “Yozi bilan Zebo” dostonidan ham har xil mavzulardagi she‘riy parchalar kuylangan. Hatto o‘tmishda o‘roqchilarning charchog‘ini aritish uchun daladagi ish ustiga maxsus xalq kuychilarini ham taklif qilishgan.

Dehqon obrazi va dehqonchilik hayotiga xos voqeliklar **bolalar xalq o‘yinlarida** ham o‘ziga xos talqin qilingani kuzatiladi. Chunki kattalar bolalarga o‘yin vositasida hayot voqealarini uqtirib borishgan. Shu ehtiyoj bilan yaratilgan xalq o‘yinlarida dehqon va bolalar, Dehqon Bobo obrazlari tasvirlanadi. Masalan, bunga “Bobo Dehqon” o‘yinini misol keltirish mumkin.

O‘zbek folklorida keng talqin etilgan dehqon obrazi va dehqonchilik mavzusi yozma adabiyotga ham ko‘chgan.

¹⁴ Жўраев М. Дехқон дала айланди // Наврўз байрами. – Тошкент: Фан, 2009. – В.194-212.

¹⁵ Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Зарифов ва Т.Мирзаев. – Тошкент: Шарқ, 1998. – Б. 38.

Rus folklorshunosligida N.I.Kravsov va S.G.Lazutin¹⁶, N.S.Polishuk, K.Ye.Korepova¹⁷ dehqonlar she'riyatini "Ishchi folklori" nomi ostida o'rganishni tavsiya qilishgan. S.G.Lazutin dehqon va ishchi qo'shiqlarini alohida-alohida chop ettirgan.¹⁸ Shuningdek, tatar folklorshunosi Marsel Bakirovning "Tatar folklori" monografiyasida ham "Ishchi folklori" alohida ajratilgan.¹⁹

O'zbek ishchilar sinfining shakllanishi XIX asr oxirida zavod va fabrikalarning ochilishi tufayli boshlangan va bu jarayon sabab o'lkada dehqonlar va ishchilar sinfi farqlana boshlagan. Ishchilar ko'proq shahar hayoti, dehqonlar esa qishloq hayoti bilan bog'langan. Natijada "dehqonlar folklori" qatorida asta-sekin "ishchilar folklori" ham paydo bo'lgan. "Ishchilar folklori" quyidagi belgilari bilan dehqonlar folkloridan farqlanadi: 1. Ishchi tilidan aytilgan. 2. Matn tilida ba'zan makoronizmlar (ruscha so'zlar) uchraydi. 3. Matn tilida ko'pincha "ishchi", "zavod", fabrika, "artel", kombinat kabi so'zlar uchraydi.

Hozirda qishloq xo'jaligining modernizatsiyasi, agrotexnikalashtirilishi natijasida "dehqon folklori" ijrosi juda-juda sustlashgan. Biroq ularda muayyan davrdagi ajdodlarimiz hayoti, tariximizni ko'rsatuvchi dalillar borki, ularni o'rganmoq lozim.

Aytish mumkinki, xalq mehnat qo'shiqlari orasida dehqonlar orasidan ishchi sinfiga o'tganlar ota-bobolarining ijodiy an'alarini o'zlashtirgan holda, qo'shiqni yangi sharoitlarda yaratar ekanlar, ularga yangi mavzuga, mehnatkash inson psixologiyasiga, hayotga qarashiga, davr mafkurasiga moslashtirganlari kuzatiladi. Bunday qo'shiqlar yaratilishida sun'iylik borligi yaqqol seziladi. Buni ulardagi quyidagi buzilishlar dalillaydi: 1. Qofiya buzilishi. 2. Turoq buzilishi. 3. Haddan oshiq maqtovga berilish. 4. Badiiylikning yo'qligi.

Dehqonlar qo'shiqlari chorakorlar, batraklar, qarollar, shuningdek, doimiy ishi bo'lmagan mavsumiy ishchilar tilidan ham yaratilgan. Ularda shu mehnat ahlining taqdiri, qashshoqlik va umidsizlik haqidagi kechinmalari ifodasini topgan. Kechirgan azobiga yarasha pul topolmagan yoki ularga yaxshi haq to'lamagan xo'jayinlaridan shikoyati kinoya shaklida berilgan. Dehqonchilik qo'shiqlari dehqonlar turmushini o'zida badiiy aks ettiradi. Dehqonchilik qo'shiqlarida shu sohaga oid tushunchalar, predmetlar obrazlantirilishi uning eng muhim janriy belgilaridan biri hisoblanadi. Bu jihatdan dehqonchilik qo'shiqlarining quyidagi muhim belgilarini sanab o'tish mumkin: 1. Dehqonchilik qo'shiqlarida yer haydashda foydalaniladigan hayvonlar: ho'kiz, ot, tuya obrazlantiriladi. 2. Omoch,

¹⁶ Кравцов Н.И., Лазутин С.Г. Лазутин. Русское устное народное творчество. – М.: Высшая школа, 1977. – С.285-307.

¹⁷ Полищук Н.С. Основные этапы развития русской рабочей песни (вторая половина XIX – XX века). – В кн.: Устная поэзия рабочих России. Под ред. В.Г.Базанова). – М.-Л., 1965. – С.59-67; Корепова К.Е. Некоторые проблемы издания рабочих песен // Русский фольклор. XIX. Вопросы теории фольклора. – Л.: Наука, 1979. – С. 178-185.

¹⁸ Крестьянские песни. // Лазутин С.Г. Русские народные лирические песни, частушки и пословицы. Учебное пособие для вузов. – М.: Высшая школа, 1990. – С.162-184; Рабочие песни / Лазутин С.Г. Русские народные лирические песни, частушки и пословицы. Учебное пособие для вузов. – М.: Высшая школа, 1990. – С. 195-201.

¹⁹ Бакиров М. Рабочий фольклор // Татарский фольклор: монография. – Казань: Изд-во АН РТ, 2018. – С.382-390.

bo'yinturuq, ketmon, panshaxa, o'roq va hokazo singari dehqonlar maishiy turmushida keng qo'llaniladigan predmetlar tasviri keltiriladi. 3. Dehqonchilik pirlarining nomi tilgan olinib, talmeh san'ati hosil qilinadi: Xizr, Bobo Dehqon kabi. 4. Dehqonchilikka aloqador marosimlar tilga olinadi: "Oblo baraka", "Qo'sh", "Qo'sh oshi" va h.k.

Birinchi bobning uchinchi fasli "*O'zbek folklorida agrar kullarga ishonch ifodasi*" deb nomlangan. Dehqonchilikka oid ilk qarashlar tabiatning ezgu va yovuz kuchlari bilan bog'lab talqin qilingan. Xususan, bunda e'tiqod qilingan ezgu ruhlardan madad tilash ustuvorlik qilgan. Shu madad tilash jarayoni esa marosim ko'rinishida tashkil qilingan. Bunday marosimlarning tadrijiy rivojini O'rta Osiyo xalqlari mifologiyasidagi agrar kullar ham o'zida namoyon etadi.

Qurg'oqchilik, suvsizlik dehqonning asosiy dushmanidir. Shuning uchun dehqonlar qadimdan suv kultiga alohida sig'inib kelgan. Ba'zan suv toshqini bo'lib, fojiali ahvolni yuzaga keltirgan. Bunga ishora "Toshmadingmi, Qoradaryo?" qo'shig'ida o'z aksini topgan.

Dehqonlar ho'kiz kuchidan yer haydashda, donni yanchishda ko'p foydalangani sababli uni muqaddas hayvon, o'ziga homiy, yordamchi sifatida qadrlashgan, e'tiqodiy munosabatda bo'lishgan. Shu orqali xalqning ho'kiz kulti bilan bog'liq qarashlari ham yuzaga chiqadi.

Dehqonchilikning o'z tartib-qoidalari, pirlari, taqvimi, olqish-duolari, qo'shiqlari, "Risola" kitobi mavjud. Unda hazrat Odam Atodan va Dehqon otadan boshlab ziroatchilikka, dehqonchilikka oid har xil diniy afsona va rivoyatlar, ishlab chiqarishga oid maslahatlar va ayrim talablar bayon etilgan.

Dehqonchilik ishlarini bajarishda astral qarashlarga ham amal qilingan. Aytaylik, quyosh nuri va yorug'i hosilning unishi, pishib yetilishi uchun yordam beradi. Shu bois dehqonchilik kulti taqvimning kelib chiqishida Quyosh kulti ham muhim rol o'ynagan astromifologik asoslardan biridir. Oy ham xuddi shunday. Oyga e'tiqodiy munosabat quyidagi yanchiq qo'shig'ida yorqin aks etgan:

Oygalak, oygalak,
Oyning yuzi do'ngalak.
Chuh, jonivor, donni yanch,
Somonni qil ming bo'lak.²⁰

Xalqimiz orasida hozirgacha Odam Ato, Bobo Dehqon, Xizr nomiga dehqonchilik pirlari sifatida sig'inib, dehqonchilik bilan bog'liq "Qo'sh chiqarish", "Shox moylar", "Qo'sh oshi", "Urug' qadadi", "Oblo baraka", "Xirmon bosdi", "Xirmon uydi" yoki "Xirmon choshlash" singari marosimlarda ulardan madad tilab, olqishlar aytilishi kuzatiladi.

Etnograf L.V.Pokrovskaya qadimgi hosildorlik kullarida kulguning ritual ahamiyatga ega bo'lganligini aytib o'tadi.²¹ Kulgu hosildorlik va hayot g'oyasi bilan bog'lanib, mifopoetik an'anada tiriklikning ramzi hisoblangan.

²⁰ Читтигул. Тўплаб нашрга тайёрловчилар: И.Султонов, Н.Рахмонов, Ш.Турдимов. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – В.25.

²¹ Мусақулов А. Ўзбек халқ лирикаси. – Тошкент: Фан, 2010. – В.102.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**O‘zbek folklorida dehqon qo‘shiqklarining tasnifi va badiiyati**” deb nomlangan. Bu bob tarkibidan dastlab “*Dehqonchilikda qo‘sh haydash jarayoni qo‘shiqdari*” nomli fasl o‘rin olgan. O‘zbek dehqonlari bahorda dalaga birinchi qo‘sh chiqarishni maxsus marosim sifatida tashkil etganlar.

Qo‘sh – bu dehqonlarning erta bahorda yer yetilgach (yer tovlagach), uni omoch bilan haydab, ekishga tayyorlash bosqichidir. Uni ko‘pincha Navro‘z arafasida “boshlagan ishimiz xayrli, oladigan hosilimiz chosh bo‘lsin” deb, chorshanba kuni boshlashgan. Momolar bug‘doy yormasidan “*qo‘sh oshi*” pishirishgan. Shuning uchun “Qo‘sh oshi” marosimida kuylanadigan qo‘shiqda shunday satrlar keltiriladi:

*Dehqon dala aylandi,
Ho‘kiz shoxi moylandi,
Omoch, mola, cho‘nka tish,
Bobo dehqon shaylandi.
Bugun bayram – yilboshi,
Yilboshiga qo‘sh oshi.*²²

“Qo‘sh marosimi” hamda “Shox moylar” marosimi olqishlarida dehqonchilik pirlariga murojaat qilinib, mo‘l hosil so‘raladi.

Qo‘sh qo‘shiqdari qo‘shchi, yetim bola va ho‘kiz tilidan kuylanadi. Qo‘shchi o‘z qo‘shiqdarida hasbi holini, mehnatining mazmunini bayon etadi. Yetim bola tilidan kuylanadigan qo‘sh qo‘shiqdarida ham hasbi hol yetakchilik qiladi. Ho‘kiz tilidan ijro qilinadigan qo‘sh qo‘shiqdarida ho‘kizning tashqi ko‘rinishi uning ichki kechinmalariga zid qo‘yiladi. Ho‘kiz shoxining dehqonga quvvat ekanligi ta‘kidlanadi. Bunda “shox” magik qudrat timsoli sifatida qaraladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “**Ziroatchilik bilan bog‘liq qo‘shiqdari**” nomi bilan atalgan. O‘zbek dehqonlarining mehnati bir necha sohalar bilan bog‘liqligi, uning ziroatchilik (donchilik va sholikorlik), tolachilik (paxtachilik, ipakchilik, kanopchilik), sabzavotchilik, polizchilik, mevachilik yoki bog‘dorchilik kabi turlari ham borligini inobatga olib, dehqonchilik qo‘shiqdari tasnifida ularni ham ko‘rsatish lozim. Negaki, bu sohalarning har biriga oid xalq qo‘shiqdari yaratilgan, ammo ular haqida shu kungacha yaxlit tasavvur uyg‘otuvchi tadqiqot yaratilmagan. Aytaylik, “**Donchilik qo‘shiqdari**” yoki “**G‘allachilik qo‘shiqdari**” bug‘doy, jo‘xori, sholi, arpa singari donli ekinlar ta‘rifiga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turadi.

Dehqonchilik qo‘shiqdari qatorida g‘allachilik qo‘shiqdari alohida o‘rin tutadi. Ular orasida “**G‘allalar ayitishuvi**” shaklida yaratilgan qo‘shiqdari alohida e‘tiborni tortadi. Tariq va qo‘noq, bug‘doy bilan arpa, jo‘xorining no‘xat va makkajo‘xori bilan ayitishuvlari shular jumlasidandir.

O‘rim qo‘shiqdari o‘ziga xos obrazlari bilan boshqa mehnat qo‘shiqdaridan alohida ajralib turadi. O‘rimchining asosiy ish quroli o‘roq, o‘riladigan ekinlar inson tirikchiligi uchun naqadar qimmatli, dehqonning ro‘zg‘or tebratishida zarur

²² Наврўз кўшиқлари. Тўплаб нашрга тайёрловчи: Жўраев М. – Тошкент: А.Навоий номидаги Ўзб. мил. кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.19.

yashash vositasi ekani tufayli ularda o‘roq, arpa, bug‘doy, sholi, tariq, no‘xat, jo‘xori, o‘roqchi, o‘rimchilar eng yetakchi obrazlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi bobning uchinchi fasli **“Bog‘dorchilik, polizchilik, tolachilik va qo‘riqchilik qo‘shiqlari”** deb nomlangan. Bog‘dorchilik o‘zbeklarning eng qadimiy kasblaridan biri bo‘lib, u bilan bog‘liq tarzda bog‘dorchilik yoki bog‘chachilik qo‘shiqlari sifatida yo mevalar ta‘rifi, yo bog‘ va bog‘bon ta‘rif-tavsifi yoxud bog‘ni qushlardan asrash haqidagi qo‘riqchilik qo‘shiqlari yaratilgan va kuylanib kelingan.

“Qo‘riqchilik qo‘shiqlari” hozirgacha alohida tahlilga tortilmagan. Bunday qo‘shiqlardan bo‘lgan “Tariq qo‘riqlovchi va Chechak qo‘shig‘i” ancha mashhurdir. “Qo‘riqchilik qo‘shiqlari” orasida yana “Chumchuq quvish”, “Qarg‘a quvish” qo‘shiqlari haligacha ijro qilinishi kuzatiladi. “Chumchuq quvish” qo‘shiqlarida chumchuqlarga qarata “Uying kuygur chumchuqlar”, “suqlar”, “Kelmay ketsin ko‘r chumchuq” singari qarg‘ish va so‘kinchlar uchraydi. Ularni ham o‘z ma‘nosida qushlarga qaratilgan deb, ham ko‘chma ma‘noda dehqonlar hosiliga ko‘z olaytirgan kimsalarga yo‘naltirilgan deb tushunish mumkin.

“Qarg‘a quvish” qo‘shig‘ida oqargancha pishib yetilayotgan jo‘xoriga yopirilgan “shum qorayaloq” qarg‘alarga dag‘dag‘a qilinadi:

Jo‘xorilar oq bo‘ldi,
Qo‘nma, shum qorayaloq.
Agar qo‘nsang urayin,
Bo‘lar oyog‘ing cho‘loq.
Ha-yu, hu!²³

Tolachilik qo‘shiqlaridan aksariyati paxtachilik mehnatiga bag‘ishlangan. O‘zi oq, ammo mehnati qora, kimlar uchundir oltin, kimlargadir zahmat va kulfat yetkazgan paxtachilik dalani ekishga tayyorlash, yerga urug‘ qadash, unib chiqqan ekinni yaganalash, o‘tash, chekanka qilish, terish mehnati orqali amalga oshirilishi tufayli bu tushunchalar paxtakorlar qo‘shiqlariga singdirilgan.

Paxtachilik xalqimizning azaliy kasblaridan biridir. Ayniqsa, sho‘rolar davrida bu mavzudagi qo‘shiqlar yaratilishi “buyurtma” asosida tashkillashtirilgan. Natijada an’anaviy lirik qo‘shiqlar mazmuni va shakli sun‘iy ravishda soxtalashtirilib, “oq paxta”, “paxtakor udarnik”, “zarbdor paxtakor”, “paxtakor traktorchi” obrazlari maqtalgan, badiiyati bo‘sh qo‘shiqlar yaratilishiga olib kelgan. Sababi, bu davrda o‘lkamizda kuchli paxta yakkahokimligi siyosati yurgizildi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbek xalq ijodida dehqon obrazi va dehqonchilik talqinida lingvopoetik xususiyatlar”** deb atalgan bo‘lib, uch fasldan iborat. Uning ilk fasli **“O‘zbek dehqonlarining taqvim folklori genezisi va poetikasi”** deb atalgan.

Dehqonlarning mehnat faoliyati taqvim bilan bevosita bog‘liq. Ular taqvimga qarab ish yuritadilar. Qadimda dehqonlar yulduzlar va qushlar harakatiga,

²³ Mirzayev T., Safarov O., O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – B.15.

yulduzlar hisobiga, tabiatda yuz beradigan o'zgarishlarga qarab o'z ishlarini tashkil qilganlar. Folklorshunos M.Pirmatova yozganidek: “Dehqon taqvim folklorining vujudga kelishi (insoniyat) dehqonlar tafakkurining taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq holda kechgan jarayondir”.²⁴

Ma'lumotlarga qaraganda, samarqandlik dehqonlar “ko'klam qo'sh chiqarar vaqtida yulduzning o'ng-chapligiga qarab, yerga qo'sh chiqarganlar. Buxorolik dehqonlar esa quyosh chiqadigan tomonda ertalab tong yulduzidan oldin ko'rinadigan ikkita yulduz, ya'ni Qo'shyulduz (“Qo'shvon yulduz”) osmonda paydo bo'lsa, yerga qo'sh solganlar. Tarozi yulduz qator bo'lgandan keyin bug'doy yanchmaganlar.

**Qo'sh yotadi, hulkar botsa,
Ish boshlaymiz tonglar otsa.**²⁵

Bu misralarda Hulkar botganda qo'sh ishining tugatilishi bildirilmoqda.

Dehqonlar o'z yumushlarini yuritishda salqin tushishi arafasida (kech kuzda) issiq o'lkalarga qishlash uchun uchib ketgan yoki erta bahorda yurtimizga qaytib kelgan mavsumiy qushlarning harakatini hisobga olishgan. Shunga qarab o'z ish vaqtlarini belgilashgan. Bunday fenologik taqvim xalq orasida “qush qayi” yoki “dolg'a hisobi”, “to'g'ich hisobi” deb ataladi.²⁶

Dehqonlar ishonchiga ko'ra, xususan, turnalar – “tilla tarozi, ob-havoga qozi”. Turnalar haqidagi qo'shiqlarda shunday deyiladi:

Turnalar uchsa pastlab,
Rizqing qilar unumli.
Turna uchsa balandlab,
Derlar yil kelar qurg'oq.
Turna qolsa yurtingda,
Salqin keladi yozi.

Hut oyi ham dehqonlar hayotida katta ahamiyatga ega. Hutdan so'ng Navro'z boshlanadi. Shuning uchun “Hut kirdi – dehqonning ichiga qurt kirdi” deyiladi. Hut – baliq degani. Hutning “qaqrayla”, “sariqsumalak”, “ochamsumalak”, “ayamajuz”, “ahman-dahman”, “xezim xirmon”, “laylakqor”, “terak kuchala”, “o'rik guli qori”, “nasi navro'z”, “obi rahmat”, “kuni bekor” kabi taqvimiy muddatlardan iborat bo'lishini qayd etadi.²⁷ Shulardan “xezim-xirmon” –“ahman-dahmandan keyin keladigan ikki kunlik muddatdir. “Xezim xirmon” muddatida Buxoroda o'zbek va tojik tillarida shunday aytilish aytilishi aniqlandi:

²⁴ Пирматова М.С. Ўзбек тақвим фольклори: Филол.фан. номз. дис. ... автореф. – Тошкент, 2008. – Б. 8.

²⁵ Mirzayev T., Safarov O., O'gayeva D. O'bek xalq og'zaki poetik ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent: Aloqachi, 2008. – B.9.

²⁶ Джабборов И.М. Из истории техники и культуры земледелие Южного Хорезма (конце XIX – XX века) // История материальной культуры Узбекистана. Вып.2. – Ташкент, 1961. – С. 294.

²⁷ Жўраев М. Яхши келса Хутни кўринг // Наврўз байрами. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.19.

O‘zbek tilida	Tojik tilida
Hutti Navro‘zda, Yoqasan qirq kunda. Navro‘z kunda Xoh kunduz kez, Xoh tunda.	Hutu Navro‘z, Chil kunda biso‘z. Ba‘d az Navro‘z Xoh shab gardi, Xoh ro‘z.

